

YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI

Abdurahmonova Manzura Komilovna

ISFT instituti Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi

5-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni va ularning umuminsoniy tamoyillar bilan bog‘liqligi tahlil qilingan. Tadqiqotda globallashuv sharoitida yosh avlod ma‘naviyatini shakllantirishda milliy o‘zlikni anglash va umumbashariy madaniyat unsurlaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan.

Annotation: This article analyzes the role of national values in the upbringing of youth and their connection with universal principles. The study highlights the issues of forming the spirituality of the younger generation in the context of globalization, using national identity and elements of world culture effectively.

Аннотация: В данной статье анализируется роль национальных ценностей в воспитании молодежи и их связь с общечеловеческими принципами. В исследовании освещаются вопросы формирования духовности молодого поколения в условиях глобализации, эффективного использования национального самосознания и элементов мировой культуры.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, yoshlar tarbiyasi, ma‘naviyat, globallashuv, pedagogik psixologiya.

Keywords: national values, universal values, youth upbringing, spirituality, globalization, pedagogical psychology.

Ключевые слова: национальные ценности, общечеловеческие ценности, воспитание молодежи, духовность, глобализация, педагогическая психология.

KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar yosh avlod tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Yoshlarni barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishda asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hamda butun insoniyat uchun umumiy bo‘lgan axloqiy me‘yorlar muhim poydevor hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida milliy qadriyatlar ota-onaga hurmat, mahalla-ko‘y birdamligi va vatanparvarlik kabi tushunchalar bilan sug‘orilgan bo‘lsa, umuminsoniy qadriyatlar bag‘rikenglik, inson huquqlari va ekologik madaniyat kabi tushunchalarni qamrab oladi. Ushbu maqolada mazkur ikki tushunchaning o‘zaro uyg‘unligi yoshlar psixologiyasiga qanday ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi tadqiq etiladi.

ASOSIY QISM

Milliy qadriyatlar har bir xalqning o‘ziga xosligini, tarixiy tajribasi va orzu-intilishlarini ifodalovchi ma’naviy boylikdir. O‘zbek xalqi tarbiya tizimida "odobi borning ofiyati bor" degan tamoyil asosida bola shaxsida hayo, andisha va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantiriladi. Ushbu qadriyatlar yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat hissini uyg‘otib, ularni jamiyatning faol a’zosiga aylantiradi. Biroq zamonaviy dunyoda faqat milliy qobiq ichida qolish yoshlarning intellektual rivojlanishini cheklab qo‘yishi mumkin. Shu sababli milliy tarbiyani umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish davr talabidir.

Umuminsoniy qadriyatlar millati, tili va dinidan qat’i nazar barcha insonlar uchun birdek qadrlil bo‘lgan tushunchalardir. Bunga tinchlikni asrash, o‘zgalar fikriga nisbatan tolerantlik, demokratiya va adolat kabilarni kiritish mumkin. Yoshlar tarbiyasida ushbu qadriyatlarning uyg‘unlashuvi ularda "jahon fuqarosi" tushunchasini shakllantiradi. Psixologik jihatdan olib qaralganda milliy va umuminsoniy qadriyatlar birlashgan nuqtada yoshlarning dunyoqarashi kengayadi, ularda turli madaniyatlarga nisbatan hurmat va tahliliy tafakkur rivojlanadi.

Globalashuv davrida "ommiy madaniyat"ning salbiy ta’sirlaridan himoyalashda milliy qadriyatlar immunitet vazifasini o‘taydi. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya topgan o‘spirin tashqaridan kelayotgan har qanday axborotni o‘zining ma’naviy filtrlari orqali o‘tkazadi. Shu bilan birga umuminsoniy tamoyillar unga dunyo ilm-fanini o‘zlashtirishda va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashda keng imkoniyatlar ochadi. Pedagogika va psixologiya sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘z milliy ildizlariga tayangan holda umumbashariy bilimlarni egallagan yoshlarda o‘ziga bo‘lgan ishonch va emotsional intellekt yuqori darajada bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi unsurlardir. Milliy qadriyatlar yoshlarning ma’naviy o‘zagini tashkil etsa, umuminsoniy qadriyatlar ularning zamon bilan hamnafas rivojlanishini ta’minlaydi. Barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ta’lim muassasalarida ajdodlar merosini o‘rganish bilan bir qatorda global dunyoqarashni shakllantiruvchi metodikalarni qo‘llash lozim. Faqatgina ushbu uyg‘unlik orqali biz ham ma’nan, ham intellektual jihatdan raqobatbardosh yoshlarni shakllantira olamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz Toshkent 2017.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch Toshkent 2008.
3. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi Toshkent 2010.
4. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi Toshkent 1996.
5. Saidov A.X. Umuminsoniy qadriyatlar va inson huquqlari Toshkent 2002.
6. Yusupov E. Ma’naviyat asoslari Toshkent 2005.